

MOSH (*Phaseolus aureus* Piper.)DAN YUQORI HOSIL OLISHDA AGROTEXNIK OMILLARNING AHAMIYATI

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich q.x.f.f.d (PhD)

Fargʻona davlat universiteti Mevachilik va sabzavotchilik kafedrasini mudiri

Karimov Abduxolik Abdullayevich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Agronomiya, qishloq xoʻjalik ekinlari seleksiyasi va
urugʻchiligi kafedrasini assistenti

Email; idrisovhusanzon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moshning biologik xususiyatlari toʻgʻrisida batafsil maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, sugʻoriladigan maydonlarda mosh yetishtirishda bu masala nixoyatda katta ahamiyatga egadir.

Kalit soʻzlar: mosh, kuzgi bugʻdoy, noʻxat, koʻk noʻxat oqsil, biologik xususiyat, dukkak, hosil.

Mamlakatimizda kuzgi boshqoli-don ekinlari yigʻishtirib olinganidan keyin, ularning oʻrniga takroriy ekinlar yetishtirish uchun qulay imkoniyat bor. Aytaylik, boshqoli-don ekinlari 15-20 iyun muddatida yigʻishtirib olinsa, undan keyin toʻrt oy, 120-130 kun issiq va haroratli kunlar davom etadi. Shu oylar mobaynida 1600-1800⁰ S foydali harorat yigʻindisini zaminimiz qabul qiladi. Bu esa respublikamizda kuzgi boshqoli don ekinlaridan keyin takroriy ekinlar ekib, hosil olish imkoniyatini beradi.

Mosh yem-xashak, sabzavot, don ekinlari uchun ajratilgan dalalarga ekiladi. U juda koʻp ekinlar, makkajoʻxori, kuzgi boshqoli don ekinlari, kartoshka sabzavot ekinlari, gʻoʻza uchun yaxshi oʻtmishdosh.

Mosh siderat ekin sifatida ham ekiladi. U koʻkat oʻgʻit sifatida ishlatilganda gʻoʻza hosili 40-60 % ortadi. Mosh oʻsuv davrida gektariga 50-100 kg azot toʻplaydi.

U ang'izga ekilganda ham gektaridan 15-18 s urug' hosili beradi. Almashlab ekishda u dalani to'la egallamaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Farg'ona viloyatining o'tloqi soz tuproqlari sharoitlarida qisqa navbatli almashlab ekish tizimlarida kuzgi bug'doydan keyin mosh parvarish qilinganida, undan 18.0-19.0 s\ga don hosili olingan.

Tuproqni ekishga tayyorlash. Tuproqqa ekish oldidan ishlov berishning maqsadi-begona o'tlarni yo'qotish, urug'larning bir tekis chuqurlikka qadalishi uchun yuqorgi qatlamning muqobil yumshoqligiga erishish, tuproq yuzasini tekislash va asosan tuproq namligini saqlab qolish, uning tuproq yuzasidan bug'lanishini kamaytirishdir.

Tuproqqa ekish oldidan ishlov berish uning mexanik tarkibi, ifloslanganlik darajasi va namlik sharoitlariga bog'liq ravishda turlicha texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Mosh bahorda ekiladigan bo'lsa dala 22-25 sm chuqurlikda chizellanadi. Erta bahorda boronalanadi va ikki marta, birinchisi 10-12 sm chuqurlikda, ikkinchisi 6-8 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinadi, boronalanadi, mola bosiladi.

Mosh ang'izga ekilganda birinchi ekin hosili tez yig'ishtirib olinadi, dala sug'oriladi, yer yetilishi bilan 20-22 sm chuqurlikda haydaladi, boronalanadi keyin talab qilinsa mola bostiriladi. Yerda yirik kesaklar hosil bo'lsa, og'ir boronalar yoki halqali g'altaklar bilan ishlov beriladi. Qator oralari ishlanadigan ekinlardan keyin dala begona o'tlardan toza, yaxshi ishlangan bo'lsa, yerni haydamasdan 10-12 sm chuqurlikda kultivatsiya qilib yumshatish keyin boronab, mola bostirilib yer ekishga tayyorlanadi.

Tuproqqa ishlov berish usullari bo'yicha olib borilgan tajribalarning ko'rsatishicha, tuproqqa ishlov berishning ag'darmay xaydash usulida parvarish qilinganda moshda don hosili 14,9 s/gani tashkil etib, 37,6 s/ga pichan hosili yig'ishtirib olingan. Tuproqqa ishlov berishning chizellash usulida bu ko'rsatkichlar mutanosib ravishda 11,3 va 30,4 s/ga ni tashkil etdi.

Ekish muddati Mosh issiqsevar o‘simlik bo‘lib, nihollarning qiyg‘os unib chiqishi uchun tuproq yetarli darajada qizigan bo‘lishi kerak. Haddan tashqari erta muddatlarda, ya‘ni tuprog‘i sernam va harorati past paytlarda ekilgan mosh siyrak unadi, nihollari ildiz chirish kasalligiga chalinadi, bu esa hosildorlikning pasayishiga olib keladi. Shuningdek ekish muddati navning biologik xususiyatlari va dalaning ifloslanganlik darajasiga ham bog‘liqdir. Ekish bahorda va ang‘izda–yozda o‘tkaziladi. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida mosh ekish uchun eng maqbul muddat aprelning birinchi o‘n kunligi, qolgan viloyatlar uchun ikkinchi o‘n kunlik hisoblanadi. Bunda tuproq 12-14⁰S qizib, sovuq tushish xavfi yo‘qolgan bo‘ladi. Ang‘izga ekilganda iyun o‘rtasida yoki oxirida ekiladi. Mosh urug‘lari ang‘izda 10 iyulgacha ekib tugallanishi lozim. Juda kech ekilsa hosil sovuqdan zararlanishi yoki donlar yetilmasdan qolishi mumkin.

Ekish me‘yori. Mutaxassislarning tahlillari natijasida, mosh har gektar yer hisobiga 400 ming dona ko‘chat hisobida 1 iyulda ekilganda oktyabr oyining o‘rtasida don hosili 18,6-19,3, shu qalinlikda 15 iyulda ekilganda 17,2-18,4 va 1 avgustda ekilganida esa 15,3-17,6 s/ga ni tashkil etdi.

Don uchun ekilganda qatorlab ekishda urug‘ ekish me‘yori gektariga 12-15 kg, yashil massasi yoki yashil o‘g‘it (siderat) uchun ekilganda ekish me‘yori 50-60 kg/ga oshiriladi va yoppasiga ekiladi.

Yuqorida olib borilgan kuzatishlarda aniqlanishicha, har qaysi tup o‘simlikdagi dukkaklar miqdori, somonining vazni va 1000 dona urug‘ og‘irligi ko‘chat qalinligining kamayishi bilan oshib boradi. Bunda 1000 dona urug‘ning eng yuqori vazni 51,9 g bo‘lib, har gektariga 200 ming tup ko‘chat saqlanganda kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabaeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Atabaeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik.T “Fan va texnologiya”. 2018

3. Atabaeva X.N., Idrisov X.A Vliyanie srokov seva na formirovanie urojaynosti sortov masha. Aktualnie problemi sovremennoy nauki. Informatsionno-analiticheskiy jurnal Rossiya.Moskva 2019 g, № 4 (107) 118-121 str.

4. Atabaeva X.N., Idrisov Opit vozdelivaniya masha v Uzbekistane. evelopment Evraziyskiy sentr innovatsionnogo razvitiya actual questions and Innovations in science ii Mejdunarodnaya nauchnaya Konferensiya Balikesir 9 oktyabrya 2019 g, Tursiya 231-234 str.

5. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B., Anorboev A.R., Idrisov X.A. Mosh etishtirish. Qo‘llanma Toshkent.2021 yil.

6. Atabaeva X.N., Idrisov Mosh etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. Monografiya. Far’gona. 2021 yil.

7. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.

8. Dala tajribalarini olib borish metodikasi O‘zPITI.2007 yil .

9. Idrisov X.A, **Nurmatov U.O Sug‘oriladigan maydonlarda mosh hosildorligiga ekish muddati va me‘yorining ta’sirini o‘rganish.** Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-31-37.

10. Idrisov X.A **M.A.Yusupova, M.A.G‘aziev, J.J. Qodirov, R.F.Akbarov, Z.T.Sodiqova. Results of Analytical Study of Growth, Development, Grain Yield and Quality of Mung Bean varieties as main and Reproductive crops.** National Volatiles & Essent. Oils (NVEO), SCOPUS. 8(4):12574-12585, 2021 y.

11. Idrisov X.A , Darmonov D.Y, Gaziev M. A, Kodirov J. J, Muqimov Z. A, N. Z Sotvoldiev, Nurmatov U. O. Mamatkulov O.O. Rasulov A..Asqarov H. Results of analytical study of growth, development and grain yield of mung bean (Phaseolis aureis Piper) varieties. INTERNATIONAL JOURNAL OF SPECIAL EDUCATION, SCOPUS. Vol.37, No.3, 2022.8880-8886 betlar.

12. Idrisov X.A Muhammadjonova Sh. Moshning kolleksiya (*Phaseolus aureus piper*) ko‘chatzoridagi nav namunalari qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rnanish natijalari. “International conference on learning and teaching-1” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan 15-February. 2022 y, 111-115 betlar.

13. Idrisov X.A, Usmonaliyev X.I., Abdug‘opporova D.A, Yusupova M.N, Murodov A.A Tipik bo‘z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) navlarini tadqiq etish. “Research and education” scientific journal volume 1, issue 2, iyun, 2022, 157-162, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6636337>

14. Idrisov X.A, Ahmadjonov O., Xoshimov N., Abdullayev A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus piper*) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me‘yoring ta‘sirini o‘rganish. “SCIENCE AND INNOVATION” xalqaro ilmiy jurnali, 2022 yil, 1-son, ISSN: 2181-3337, Toshkent. 616-624 betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6529068>

15. Idrisov X.A, Baxramov R.M.. Soyaning yangi navlarini yaratish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar. “SCIENCE AND INNOVATION” xalqaro ilmiy jurnali, 2022 yil, 1-son, ISSN: 2181-3337, Toshkent. 776-786 betlar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6535751>

16. Idrisov X.A, Atabaeva X.N., Soliyev A. O‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus piper*) ning o‘shishi, rivojlanishi va don hosildorligi. “Research and education” scientific journal volume 1, issue 2, may, 2022, 373-382. https://t.me/Resarchedu_journal/1171.

17. Idrisov X.A, Xaliljonov D. Dukkakli ekin-mosh (*Phaseolus aureus Piper*.)-morfologiyasi. “International conference on learning and teaching-9” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-june.2022 y, 139-143 betlar. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/06/CONFERENCE-2022-9-full-2.pdf>

18. Idrisov X.A, Xaliljonov D Osiyo loviyasi-mosh (*Phaseolus aureus Piper*.)-biologik xususiyatlari. “International conference on learning and teaching-9”

mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-june.2022 y, 144-148 betlar. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/06/CONFERENCE-2022-9-full-2.pdf>.

19. Idrisov X.A, Xaliljonov D Mosh qimmatbaho dukkakli ekin. “International conference on learning and teaching-9” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami Tashkent, Uzbekistan, 15-june.2022 y, 149-153 betlar. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/06/CONFERENCE-2022-9-full-2.pdf>

20. Sattarov M.A., Axmedova Z.R., Idrisov X.A J.U.Hamdammov. Different new varieties of soybean (*Glycine hispida* l) and mungbean *Phaseolus aureus* piper) plants’ tuber production abilities and primary indicators of symbiotic activity EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) SJIF Impact Factor:7.032 ISI I.F.Value:1.188 ISSN(Online): 2455-3662 DOI:10.36713/epra 2013, Volume-6, Issue-9, September 2020, 377-391 betlar.